

## PIKTOGRAFIYADAN ALIFBOGACHA; YOZUV TIZIMI EVOLUTSIYASI

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidgi  
Andijon davlat universiteti Tarix va ijtimoiy fanlar  
fakulteti 2-bosqich talabasi Kamoliddinova Durdona

**Annotatsiya:** Maqola insoniyat madaniy merosining asosiy tarkibiy qismi boʻlgan yozuvning paydo boʻlishi va rivojlanish tarixiga bagʻishlangan. Unda yozuvning eng oddiy va vizual shakli – piktografiyadan boshlab, murakkab tizimlar – ideogrammalar, sillabogrammalar orqali, nihoyat, fonetik tamoilga asoslangan alifboning ixtiro qilinishigacha boʻlgan yoʻl turli qadimiy sivilizatsiyalar Mesopotamiya, Misr, Xitoy, Finikiya va Yunonistonistonda yozuv tizimlarini ishlab chiqilish va takomillashtirish misolida ochib beriladi.

**Kalit soʻzlar:** yozuv tarixi, piktografiya, ideografiya, logografiya, alifbo, yozma madaniyat, qadimgi sivilizatsiyalar.

Аннотация:

Статья посвящена истории возникновения и развития письменности, которая является ключевым компонентом культурного наследия человечества. В ней раскрывается путь от самой простой и наглядной формы письма — пиктографии, через сложные системы (идеогаммы, силлабогаммы) к изобретению алфавита, основанного на фонетическом принципе. Этот процесс показан на примере разработки и совершенствования систем письма в различных древних цивилизациях: Месопотамии, Египте, Китае, Финикии и Греции.

Abstract:

The article is dedicated to the history of the origin and development of writing, which is a fundamental component of humanity's cultural heritage. It reveals the path from the simplest and most visual form of writing—pictography—through complex systems (ideograms, syllabograms) to the invention of the alphabet based on the phonetic principle. This process is illustrated by the example of the development and improvement of writing systems in various ancient civilizations: Mesopotamia, Egypt, China, Phoenicia, and Greece.

**Keywords:** history of writing, pictography, ideography, logography, alphabet, written culture, ancient civilizations.

Yozuv insoniyat madaniyati taraqqiyotining eng muhim yutuqlaridan biridir. Inson oʻz fikrini, his-tuygʻusini yoki voqealarni avloddan-avlodga yetkazish zaruratini sezgan paytdan boshlab yozuvning ilk koʻrinishlari paydo boʻla boshlagan. Dastlabki yozuv

shakllari piktografiya, ya'ni turli predmet va hodisalarni tasvirlovchi belgilar tizimi bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan bu belgilar asta-sekin ramziy ma'nolar kasb eta boshlagan va ideografik hamda logografik tizimlarga o'tgan.

Piktografik belgilar odatda rasmlar orqali fikrni ifodalagan bo'lsa, ideografik tizimda belgilar tushunchalarni bildirgan, fonetik yozuvlar esa tovushni ifoda etgan. Nihoyat, inson tafakkurining yuksalishi natijasida har bir tovush uchun alohida belgi — alifbo yaratilgan. Shu tariqa yozuv tizimi tasviriy belgidan tovushiy belgiga o'tib, bugungi zamonaviy yozuvlarning asosi bo'lgan alifbo tizimi vujudga kelgan.

Yozuvning piktografiyadan alifbogacha bo'lgan yo'li — bu inson tafakkuri, tili va madaniyatining uzluksiz rivojlanish tarixidir. Yozuvning paydo bo'lishi haqidagi ilmiy qarashlar bir necha nazariy yo'nalishlarga bo'linadi: 1. Ilg'or taraqqiyot nazariyasi. Bu nazariyaga ko'ra, yozuv inson tafakkuri va nutqining rivojlanishi natijasida tabiiy ravishda yuzaga kelgan. Dastlab odamlar voqea-hodisalarni esda saqlash uchun oddiy belgilar — piktogrammalardan foydalanganlar. Keyinchalik ular asta-sekin murakkablashib, ideografik va fonetik belgilar tizimiga aylangan.

2. Ijtimoiy ehtiyojlar nazariyasi. Tadqiqotchilarning fikricha, yozuv birinchi navbatda xo'jalik yuritish, savdo-sotiq, davlat boshqaruvi kabi ijtimoiy ehtiyojlar natijasida vujudga kelgan. Qadimgi shumerlar va misrliklar o'z yozuv tizimlarini aynan xo'jalik hisob-kitoblari hamda diniy marosimlarni qayd etish maqsadida yaratganlar.

3. Diniy-mifologik nazariya. Ayrim qadimgi xalqlarda yozuvning paydo bo'lishi ilohiy hodisa sifatida talqin qilingan. Masalan, qadimgi misrliklar yozuv ixtirosini xudo Totga bog'laydilar.

4. Ko'p markazli taraqqiyot nazariyasi. Ba'zi olimlarning fikricha, yozuv insoniyat tarixida bir markazda emas, balki bir vaqtning o'zida turli hududlarda mustaqil ravishda paydo bo'lgan. Shumer mixxat yozuvi, Misr iyeroglifi, Xitoy iyeroglifi va Maya yozuvi buning yorqin misolidir[6].

Mayya yozuvi — indeys xalqlaridan biri — mayyalarning o'ziga xos iyeroglifik (so'z-bo'g'inli) yozuvi. XVIII-XX asrlarda topilgan 4 ta yozma yodgorlik Drezden, Parij, Madrid va NyuYork shaharlarida saqlanadi. Ular milodiy I asrga mansub. Shuningdek, mayya shaharlari xarobalarida toshlarga yozilgan, biroq ataylab shikast yetkazilgan bir qancha toshbitiklar ham aniqlangan. Mayya yozuvi XVI asrgacha, ispan cherkovi taqiqlaguncha amalda bo'lgan. Mayya yozuvida harf yoki bo'g'inni ifodalovchi (fonetik), butun bir so'zni bildiruvchi (ideografik), shuningdek, o'qilmasada, so'z ma'nosini tushuntiruvchi (ochqich) belgilar qo'llangan. Hammasi bo'lib 300 ga yaqin belgi aniqlangan. Iyeroglifik matnlar tili talaffuz, so'zlar tarkibi, grammatik jihatlardan XVI-XVII asrlardagi mayya so'zlashuv tilidan farq qilgan. Mayya kitoblari maxsus usul va vositalar bilan tay-yorlangan, har ikki tomoniga ohak surtilgan qog'oz

tasmalariga shoʻtka bilan yozilgan. Mayya yozuvini oʻqib oʻrganish harakati XIX asr oʻrtalarida boshlangan boʻlsada, qogʻozga va toshga yozilgan matnlar hozirgacha toʻliq tarjima qilinmagan.

Yunon yozuvi - finikiy yozuvidan kelib chiqqan alifboli (harf—tovushli) yozuv; taxminan mil. av. IX-VIII asrlarda paydo boʻlgan. Eng qadimiy yodgorliklari mil. av. VIII-VII asrlarga mansub. Turli va harflar toʻplami jihatidan qadimiy frigiya alifboli yozuviga (mil. av. VIII-VII asrlar) yaqinroq turadi. Yunon yozuvida, finikiy konsonant (undoshli) alifbosidan farqli ravishda, undoshlarni ifodalovchi harflardan tashqari unilarni ifodalovchi harflar ham paydo boʻladi. Bu yozuv taraqqiyotidagi yangi bosqich sifatida katta umummadaniy ahamiyatga ega boʻldi [1.236].

Alifboli yozuv paydo boʻlgunga qadar yunon chiziqli boʻgʻin yozuvidan foydalanganlar. Alifboli Yunon yozuvi 2 tarmoqqa boʻlingan: gʻarbiy va sharqiy. Gʻarbiy Yunon yozuvi, oʻz navbatida, ayrim belgilarning yozilishidagi xususiyatlari bilan ajralib turuvchi bir qancha mahalliy koʻrinishlarga ega boʻladi. Sharqiy Yunon yozuvi klassik Yunon yozuvi va vizantiya yozuvi tarzida rivojlandi, qibtiy (kopt), got, slavyankirill, shuningdek, arman, qisman gruzin yozuvlariga asos boʻldi. Gʻarbiy Yunon yozuvi asosida esa etrusk, lotin va qadimiy german runik yozuvlari paydo boʻldi.

Klassik umumyunon alifbosi (mil. av. IV asrdan) 27 harfdan iborat boʻlib, shu asosdagi matnlar chapdan oʻngga qarab yozilgan. "Stigma", "koppa", "sampi" belgilari faqat sonlarni ifodalash uchun qoʻllangan, keyinchalik alifbo qatoridan chiqarilgan. Yangi yunon (grek) alifbosi 24 harfdan iborat [1.237].

Yunon yozuvining bir necha turlari, koʻrinishlari boʻlgan: tosh, metall, sopol kabi qattiq jismlarga bitilgan monumental yozuv (qatʻiy kvadrat shaklli, qirrador yozuv; mil. av. VIII asrdan), unsial yozuv (dumaloqroq shaklli, nimoqsimon yozuv; mil. av. IV asrdan papirusda, mil. II asrdan pergamentda), kursiv yozuv (tez yoziladigan, qoʻlyozma shaklidagi yozuv, mil. III asrdan). XIII asrdan kichik minuskul (kichik harflardan iborat yozuv) barqarorlashib, dastlabki yunon bosma shrifti (XV asr) uchun asos, andoza boʻladi. Hozirgi yunon bosma harflari XVII asrda yaratilgan [1.236].

Misr yozuvi er. avv. IV ming yillik oxirida rasm-yozuv, piktografiya asosida kelib chiqdi. Faqat oʻrta podsholik davriga kelib rivojlangan yozuvga aylandi. Er. avv. II ming yillikda 700 iyeroglifdan foydalanilgan. Yozuv uchun material sifatida tosh (inshoot, sagʻana, haykallar), loy taxtachalar (ostrakon), yogʻoch charm va papirus xizmat qilgan.

Mesopatamiya- jahon sivilizatsiyasi va qadimgi oʻchoqlaridan biridir. Bu madaniyatning asoschilari shumerliklar boʻlib, er. avv. IV-III ming yillikda yozuvni ixtiro qilishdi. Dastlab shumer yozuvi piktografik shaklda alohida buyumlar, tasvirlar

tarida ifodalangan. Bu yozuvning eng sodda ko‘rinishi bo‘lib ‘mixxat’ deb atalgan va unda 600 ta belgi mavjud edi. Shumerliklar yozuv uchun loy taxtachadan foydalanganlar. Matn yozilgan taxtachalar oftobda quritilgan. Odatda, taxtachalar o‘lchami 7-9 sm bo‘lgan[2.204].

Ilk Xitoy yozuvining eng qadimgi yodgorliklari er. avv. XIV–XI asrlarga oid fol ko‘rish yozuvlaridir. In yozuvlarining ko‘pchilik qismi buyumlar tasviridir. In belgilarini buyumlar tasviri yoki murakkab tushunchalarni ifodalaydigan ko‘pgina tasvirlar qo‘shilmasi ideogramma ko‘rinishidadir. In belgilarining hozirgi Xitoy iyerogliflaridan 3 xil farqli tomoni bor. Birinchidan, har bir elementar belgi qandaydir buyumning konturini tasvirlagan, ikkinchidan, bir belgini yozilishida ko‘p yilma-chiziqlar mavjud, bu hozirgacha bor bo‘lmagan. In yozuvining yo‘nalishiga to‘liq harakat hali darajada qat’iy bo‘lmagan. In yozuvining er. avv. I ming yillikda Chjoular tomonidan o‘zlashtirilishi, uning taraqqiyotini uzib qo‘ymadi. Er. avv. II–I ming yilliklarda iyerogliflarning mahalliy variantlari unifikatsiya qilindi, belgilarni yozishning yangi husnixati paydo bo‘ldi. Qadimgi Xitoyda odatda yupqa yog‘och yoki bambuk taxtachalarga yozilgan. Tushli mo‘yqalam bilan yozuv ana shu taxtachalarga tushirilgan va yozuvlar metall pichoq bilan tozalangan. Eramizdan avvalgi I ming yillikning o‘rtalarida ipak matoga ham yozilgan. Yangi era boshida qog‘oz kashf qilinib ishlatila boshlandi va qog‘oz boshqa materiallarni siqib chiqardi[2.204].

Xarappadagi katta shaharlari xarobalaridan topilgan iyeroglif yozuvlari shuni ko‘rsatadiki, eramizdan avvalgi III ming yillikdayoq Hindistonda o‘ziga xos ravishda vujudga kelgan suratli yozuv mavjud bo‘lgan. Hindistonda alfavit bo‘g‘inli yozuv — er. avv. III asrda tarqalgan. Xaroshthi yozuvidagi yozuvlar ana shu davrga oid, bu yozuv oromiy yozuvini qo‘llanish negizida vujudga kelgan bo‘lishi mumkin. Ashoka yozuvlarining ko‘pi Brahma yozuvining asl qadimgi hind sistemasi ko‘lamida yozilgan bo‘lib, bu yozuvdan devanagari va boshqalar ko‘pgina hind alifbolari klassik sistemasidan taraqqiy etgan. Kundalik hayotda bo‘ladigan ehtiyojlar insonni juda qadimgi zamonlardayoq tabiatda bo‘ladigan turli hodisalarni tartibli sur‘atda kuzatib borishga majbur etgan[3.34].

O‘rta Osiyo hududida ham dunyo tamadduni tarixidagi eng qadimiy bo‘lgan yozuv na‘munalari topilgan. Xususan, yurtimiz hududida qadimda istiqomat qilgan qabila va elatlarning aqliy salohiyati va ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqib bir nechta yozuv turlarini kashf etdilar. Jumladan, saklar, so‘g‘iylar, xorazmlilar, baqtriyaliklar o‘z yozuvini ixtiro qiladilar.

Saklar — Markaziy Osiyo va Qozog‘istonning dashtlarida, cho‘llarida va tog‘larida joylashgan ko‘chmanchi qabilalardir. Olimlar fikriga ko‘ra, sak tilida yoritilgan eng qadimgi manba — bu Olmaota atrofida Issiq qo‘rg‘onida topilgan kumush idishdagi

yozuvdir. U miloddan avvalgi V asr bilan sanaladi. Tilshunoslik fanlarida Issiq yozuviga o'xshagan belgi yozuvlari «noma'lum kat» deb ataladi. Sak tillarida erib tilgan hujjatlarning asosiy qismi Sharqiy Turkistondagi Xo'tan vohasidan topilgan. Ular VII–X asrlarga oiddir. Bu yozuvlarni o'rganishda G. V. Bailyin, M. X. Drezden, L. G. Gershenberg, A. A. Freyman, I. M. Oranskiy qatnashganlar. Avesto, sug'diy, xorazmiy tillar va zamonaviy tillardagi ba'zi atamalar, tushunchalar va nomlar zamonaviy tillarda saqlanib ishlatilmoqda. Jumladan, avesto so'zlari «bratar» — «birodar», «aka» (rus tilida ham «brat»); «xafta» — «hafta», «etti»; «band» — «bog'lab qo'yish»; «zar» — «oltin»; «nav» («nav») — «yangi»; «af» — «ob»; «framana» — «farmon» va hokazo[5.14].

Ayrim tushunchalar sug'd so'zlari — «tak» (qurilish, gumbaz) va «kat» (uy-joy, makon) bilan bog'langan (chortak, Peshqot, Katob — Kitob, Navkat, Surkat). Avesto so'zi — «raoshana» (yorug', ravshan, oydin), Zardusht nomi bilan saqlangan. Juda ham ko'p atamalar yurtimizning qadimgi hamda hozirgi o'zbek va tojik so'zlarining qo'shilishi asosida paydo bo'lgan (Zar — o't-soy, Zar-bof, Dar-band, Dara-band, Sar-band, Kuhi-chur, Kat-ob, Shahri-sabz, Soy-sayid, Xazar-buka, Xazar-asp, Band-i-xon, Nur-ota, Nav-bahor). Jumladan, «Katob» — hozirgi Kitob — bu «darë bo'yidagi makon, qo'rg'on», «Shahrisabz» — «yashil, ko'kalmazor shahar», Xazarbuka, Xazarasp — «ming buqa, ming ot» tushunchalarini bildiradi. Ba'zi qishloqlarning nomlari juda ham qadimgi so'zlardan kelib chiqqan. Misol uchun Surxondaryodagi Baxshivar — bu «dahshat qishloq, makon» deb tarjima qilinadi va avesto so'zlari — «vaxsh» (dahshat), «vara» (makon) bilan bog'lanadi[5.15].

Qadimgi Xorazm yozuvi. Shimoliy Xorazmda “Katta Oybuyir qal'a” yodgorligidan xum qorninga yozilgan oromiy yozuvi nusxasi topilgan. Bu O'rta Osiyodagi oromiy yozuvining eng qadimgi namunasi bo'lib, ushbu hum miloddan avvalgi V asrga oid. Unga nima yozilganligi noma'lum, chunki u o'qilmagan. Mahalliy aholi oromiy alifbosidan foydalanib, qadimgi Xorazm tiliga moslab kasb etgan mahalliy yozuvining namunasi miloddan avvalgi IV asrning oxiri — III asr boshlariga oid yodgorlik Qo'yqirilganqal'adan topilgan, ya'ni sopol parchasiga yozilgan “ASPABARAK” so'zidan iborat bo'lib, olimlar asar, spinoji degan ma'noda bergan. Xronologik jihatdan navbatdagi oromiy yozuvi milodiy I–VIII asrlar davriga tegishli tangalarda uchraydi. Tangalar (“Vazamar”, “Artamax”) deb yozilgan qadimgi Xorazm podsholarining nomlari yozilgan[4.128].

Uchinchi guruh yozuvlar Tuproqqal'adagi qadimgi Xorazm podsholarining arxivlaridan topilgan. Ular teriga, yog'ochga va taxtakachkarga yozilgan 114 parcha xo'jalik hujjatlari, ya'ni tevarak-atrof qishloqlardan keltirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining miqdoriy ro'yxati. kirim-chiqim hisoblari va boshqalar haqida

ma'lumotlar yig'ilgan bo'lib, ular milodiy III-IV asrlarga tegishli edi. Qadimgi Xorazm yozuvining to'rtinchi guruhi VI-VIII asrlarga oid bo'lib, bular kumush qadahchalardan iborat. Ularning sirtiga usta va egasining nomi bitilgan. Beshinchi guruh yozuvlar To'qqal'adan topilgan ossuriylar sirtiga yozilgan. To'qqal'a yozuvlari butun bir kutubxonadir. Nihoyat, oltinchi guruh yozuvlar Mizdaxkan yodgorlik majmuasidagi Govur qal'adan topilgan.[4.129].

Taxminan miloddan avvalgi 1000 yillar atrofida oromiy yozuvi paydo bo'ldi va o'zining ilk bosqichida (miloddan avvalgi X-VII asrlar) finikiya yozuvi chizma shakllari oromiy tili doirasida katta sinovdan o'tadi. Bu yozuv namunalari toshlarga bitilgan Axomoniylar podsholarining (mil. avv.VI-IV asrlar) kitobalari bo'lib, bu bitillar oromiy yozuviga katta nufuz beradi. Bu nufuz Axomoniylar davlati doirasida mahkama tili va yozuvi sifatida ko'ta tashlanali, ya'ni oromiy yozuvining xalqaro nufuzi Bihistun tosh bitiklarining mashhur «70 bandi» da o'z aksini topgan. Ushbu tosh kitobalarda Doro I, unga tobe mamlakatlarga oromiy yozuvida buyrug'ini tarqatgan. Bu buyruq oromiy yozuvi haqida bo'lib, unda «bitikni boshqa qilib o'riycha tuzdim, bunakasi ilgari bo'lmagan edi. Keyin esa bu yozuvni (barcha) yurtlarga tarqatdim. Uni xalqlar qabul qildi», deydi. Oromiy yozuvida ham unli tovushlar yo'q. Undosh tovushlarni yoz oladigan ibodatxona xodimlari so'zlardagi unli larni xayolan tiklab o'qidilar. Bunday o'qish yozuv tarixida kvazialfavit deyilib, oromiy kvazialfavitidan parfiya, xorazmiy, bohtariy, sug'diy yozuvlari paydo bo'ladi. Demak, ularda ham unli tovushlar yo'q. Oromiy yozuvi va unga asoslangan boshqa yozuvlar alifbosi 22 ta harf-belgi asosida qurilgan[4.127].

Baqtriya yozuvi. Miloddan avvaldi IV asr oxirigacha qadimgi Baqtriya hududida oromiy yozuvlari ishlatilib kelingan. Keyin Baqtriyada mahkama tili va yozuvi yunonch bo'lgan. Taxminan, miloddan avvalgi III-II asrlar chegarasida oromiy yozuvi asosida baqtriya yozuvi ishlab chiqiladi degan ilmiy farazlar mavjud. Chunki, Oyxonmdan miloddan avvalgi ii asr birinchi yarmiga tegishli bo'lgan baqtriya yozuvi topilgan. Qadimgi Baqtriyada o'sha asrlar bir vaqtning o'ida baqtriya va yunon tili yozuvi, braxmi va kxorshti yozuvlari muomalada bo'lganligi hadida yozma va numizmatika materiallari topilgan[4.129].

Sug'diy yozuvi. Milodan avvalgi III-II asrlarda oromiy yozuvi asosida shakllangan sug'diy yozuvi o'lkamiz madaniyati trixida muhim rol o'ynaydi. Bu yozuv ijtimoiy va madaniy hayotning barcha sohalarida keng qo'llanilgan. Sug'd tili va yozuvi Sug'diyona hududlaridan tashqari Farg'na vodiysi, Toshkent vohasi va Yettisuvda keng yoyilgan. Sug'diy yozuvi orqali bizgacha ermiz boshlaridan to XI asr birinchi choragigacha qadar yozilgan ko'lab noyob yozma yodgorliklar yetib kelgan. Ular orasida ko'plab numizmatika materiallari, metal, sopol, yog'och, charm, qog'oz

va boshqa buyumlarga bitilgan matnlar, shaxsiy maktublar, xo‘jalik va moliya hisoboti hamda huquqiy va diplomatik hujjatlar, nikoh guvohnomalri, ayg‘oqchilik maktublari, diniy, axloqiy-falsafiy matnlarning parchalari bor[4.130].

Sug‘diy yozuv 22 harf belgidan iborat. U bir necha bosqichni o‘z boshidan kechirgan. Uning ilk bosqichi Yunon-Baqtriya tangalariga taqlid qilib chiqarilgan sug‘d tangalarida uchraydi. Shuningdek sug‘diy yozuvining na‘munalari afrosiyobdan topilgan eramizning I-III asrlarga tegishli spool parchalar va terrakota haykalchalar uchrydi. Milodiy II asrda Sug‘diyonda kumush tangalar zarb etila boshlaydi va u jahon bozoriga chiqadi[4.130].

1933- yilda Xayrobod qishlog‘i yaqinidagi Mug‘ qal‘a qasr xarobalaridan sug‘diy hujjatlar topib o‘rganildi. Mug‘ qal‘a sug‘d arxivi deb ataladigan bu yozma hujjatlar majmuasi VIII asrning dastlabki o‘n yilligiga oid(712-722) 89 ta hujjat bo‘lib, ulardan 74 tasi sug‘d tilida( shundan 29 tasi teriga, 22 tasi qog‘ozga, 23 tasi yog‘ochga) yozigan edi. Sug‘diy hujjatlar Ichida ara, xitoy, qadimgi turkiy tilda yozilgan na‘munalar ham uchraydi[4.130.131].

Qadimgi Xorazm yozuvi. Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi yozuvi- bu xumning sitidagi tasvirlangn xorazm tilidagi qisqa yozuvdir. Bu yozuv qadimgi oromiy yozuvi asosida shakllangan. U Katta Oybo‘yirqal‘a Shahar xarobasidan topilgan. Arxeologik ma‘lumotlarga ko‘ra bu yozuv miloddan avvalgi V-IV asrlarga tegishlidir. Miloddan avvalgi IV-III asrlarga oid yana bir qadimgi Xorazm yozuvi Qo‘yqirilganqal‘ada topilgan spool iishning sirtida saqlangan. Bu manba yagona ‘aspabarak’-‘otliq’, ‘chavandoz’ so‘zidan iboratdir[5.13].

Xulosa qilib aytganda, yozuv insoniyat tafakkurining eng yirik yutuqlaridan biridir. Piktografik belgilar orqali fikr ifoda etishdan boshlab, fonetik yozuv va alifbo tizimlarining paydo bo‘lishi inson jamiyatining madaniy va intellektual rivojlanish bosqichlarini aks ettiradi. O‘rta Osiyo hududida qadimdan mavjud bo‘lgan yozuv namunalarining o‘rganilishi bu mintaqaning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi o‘rnini yaqqol ko‘rsatadi. Yozuvning shakllanish jarayoni xalqning tarixini, dunyoqarashini va madaniyatini o‘zida mujassam etadi.

#### **Foydalanigan adabiyotlar ro‘yxati;**

- 1.O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. –Tosheknt, 2000.
- 2.Rajabov.R. Qadimgi dunyo tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009
- 3.Xoshimov. S. Fan va texnika tarixi. –Toshkent: Voris-nashriyot, 2024.
- 4.Аскарлов. А. Узбек халкининг келиб чиқиш тарихи –Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
5. Сагдуллаев А. Кадимги Узбекистон илк езма манбаларда –Toshkent: Укитувчи, 1996.
- 6.Wikipediya